

Jumabiye SMETOVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: smetova922@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, dotsent T.Islomov taqrizi asosida

DEVELOPING THE SKILLS OF WORKING WITH INDEPENDENT STUDY OF STUDENTS FROM THE SCIENCE OF EDUCATION

Annotation

The article describes the competences of developing the skills of working with independent education, the general methodology of the theory of education, and ideas that help students to think logically on the basis of independent education, and to expand the scope of creative research.

Key words: Pedagogy, higher education, system, educational sciences, independent education, assignment creation, pragmatics, didactics, methodology, hybrid, trajectory, competence.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ РАБОТЫ С САМОСТОЯТЕЛЬНЫМ ИЗУЧЕНИЕМ У СТУДЕНТОВ ОТ НАУКИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье описаны компетенции развития навыков работы при самостоятельном обучении, общая методология теории образования, а также идеи, которые помогают учащимся логически мыслить на основе самостоятельного обучения, расширять сферу творческих исследований.

Ключевые слова: Педагогика, высшее образование, система, педагогические науки, самостоятельное образование, создание заданий, прагматика, дидактика, методология, гибрид, траектория, компетентность.

TALABALARINI TARBIYA FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqlolada talabalarni tarbiya fanidan mustaqil ta'lism bilan ishslash ko'nikmalarini rivojlanirishning kompetensiyalarini aniqlash, tarbiya nazariyasining umumiyl metodikasi va talabalarni mustaqil ta'lism asosida mantiqiy fikrlashga, ijodiy izlanish doiralarini kengaytirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Pedagogika, olyi ta'lism, tizim, tarbiya fanlari, mustaqil ta'lism, topshiriqlar tuzish, pragmatika, didaktika, metodika, gibrild, traektoriya, kompetentsiya.

Kirish. Dunyoda bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini, didaktik-metodik kompetentligini rivojlanirishda gibrild ta'lism modellarini samarali qo'llash mexanizmlarini rivojlanirish, metodik o'qitish vositasida tarbiya fanining ta'limiyl jarayonida, mustaqil ta'lism topshiriqlaridan foydalananish orqali, ilmiy adabiyotlarda mustaqil topshiriqlarini mazmuniga, foydalilik darajasiga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, talabalarning didaktik-metodik kompetentligini shakllantirishning amaliy- va ilmiy metodik ta'minotini rivojlanirish, masofaviy va mustaqil ta'lism olish imkoniyatlarini kengaytirishning an'anaviy va noan'anaviy shakllarini tarbiya fani ta'lism sohalariga adaptiv qo'llash, didaktik-metodik tizimini ishlab chiqish va foydalananish muhim dolzarblik kasb etadi. Globallashuv va axborotlashish jarayonlari, innovatsion ta'lism muhitida yuzaga keladigan mustaqil ta'lism topshiriqlarida, pedagogik-metodik o'zgarishlar kiritishni taqozo etib, bu borada Tarbiya fanlarini o'qitishning ahamiyati ortib bormoqda. Tarbiya fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lism topshiriqlaridan foydalananish metodikasi pedagogik OTM muassasalarida o'qitish amaliyotida gibrild ta'limga amalga oshirilmoqda bu aynan 4+2 pedagogik amaliyoti bunga yaqqol misol bo'ladi. Tarbiya fanlarini o'qitish hamda pedagogik kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan didaktik kompetensiyalarini rivojlanirish muammolarini pedagogik OTMlar kesimida o'rganilmoqda. Rivojlangan davlatlardagi, ta'lism jarayonida mustaqil ta'lism topshiriqlarini tashkil qilish tizimi (bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlanirish bilan bog'liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (Bright Hub Education) tarbiya fanlarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar olib borilayotgan pedagogik olyi ta'lism muassasalarida kompetensiyalarining rivojlanirish darajasini oshirib borish zarurligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarda tarbiya fanlarini o'qitish, uni avaylab-asrash, milliy qadriyat sifatida ulug'lashga doir ilmiy izlanishlar uzuksiz ravishda olib boriladi. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va olyi ta'lism muassasalari, jumladan, Mugla Üniversitesi (Turkiya), Indiana University (AQSh), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchester, Oxford university (Buyuk Britaniya), Belfield pedagogical university Germany (Germaniya), Nauchniy sentr gumanitarnix issledovaniy (Rossiya) kabi ko'plab ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan kasbiy kompetensiyani rivojlanirish muammolar, tarbiya fani ustida ishslash mustaqil ta'lism orqali o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari tizimli ishlab chiqilgan. (Ulyanovskiy gosudarstvennyy universitet). Pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlanirish bilan bog'liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (Bright Hub Education); pedagogika fanlarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar olib borilayotgan (Payomi Donishgohi Milliy Tochikiston), (Janubiy Qozog'iston pedagogika universiteti olyi ta'lism muassasalarida kasbiy kompetensiyalarini rivojlanatish ustuvor vazifa sifatida qo'yilgan. Jahon ta'lism tizimida interaktiv o'qitish tizimidan foydalananish (interactive E-learn) bo'yicha tadqiqotlар yetakchi olyi ta'lism muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSh), interaktiv ta'lismi amalga oshirish BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD), pedagogik ta'limga oid muammolari (Baku: Azerbaycan Dövlet Pedagoji Universiteti) mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida qo'llaniladigan chora-tadbirlar majmuasi tarbiyaviy jarayonni tashkil etadi. Tarbiya insonning yuksakligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida inson ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa bit avlodga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda[9] tarbiya atamasini keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar

harakatlar va intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari va san‘atning barcha turlarini o‘z ichiga oladi[10]. Shuningdek, keng ma‘nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta‘lim va ma‘lumot ham kiradi. Tor ma‘noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma‘naviy-axloqiy qiyofasi va estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunda oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamaot tashkilotlari tarbiya ishini amalga oshiradi. Ta‘lim va ma‘lumot olish tor ma‘nodagi tarbiya tushunchasi ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta‘lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki, ta‘lim va ma‘lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki, axloqiy-ma‘naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a‘zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga uchraydi. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma‘naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi.

Tarbiya nazariyasining umumiy metodikasi quyidagilar bilan belgilanadi:

- tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari;
- tarbiya didaktikasi;
- tarbiyaviy jarayonda amaliyot;
- tarbiyaviy ta’sir etish usullari:

Mazkur masalalar tarbiya nazariyasining negizi sifatida O‘zbekistonda ta’sis etilgan yangi —Tarbiya fani asoslarni tashkil etadi. Shu sababli jamiyatda tarbiyaning o‘rni, ahamiyati va amaliyoti uzliksiz ta‘lim tizimida yetarli darajada idrok etilmoqda. Mazkur masala bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni nazariy bilim, kasbiy ko‘nikma va amaliy kompetensiyalar bilan qurollanishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilarning mutaxassislik kasbiga tayyorlashda yangi fan —Tarbiya fani asoslari bo‘yicha mustaqil ta‘lim bo‘yicha maqsadli bilim berish, tarbiyaning yangi metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu sababli mazkur tadqiqot materiallarga e’tibor qilish tavsiya etiladi.

“Tarbiya” fani asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020 yilda o‘zbek Pedagogika fani tarixida ilk bor tarbiya fani ishlab chiqildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldaggi 422-sonli Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi va mazkur qaror bilan Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini o‘quvchilari uchun tarbiya fani Kontsepsiysi tasdiqlandi.

Qarorga binoan Tarbiya fani amaldagi quyidagi fanlarni qo‘shish hisobiga tashkil etildi.

1.Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan —Odobnama va —Vatan tuyg‘usi o‘quv fanlari;

2. Yuqori sinflarda o‘qitiladigan —Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari hamda —Dunyo dinlari tarixi o‘quv fanlari.

Mana shu fanlar negizida OTMdada yangi fanlar Tarbiya fanlarini o‘qitish metodikasi, Milliy tarbiya asoslari, Tarbiya fanlarini o‘qitishda innovatsiya va integratsiya kabi fanlar shakllantirildi. Ushbu tarbiya fanlarining metodologik asoslarni quyidagilar tashkil etadi:

- ta‘lim-tarbiyaga oid me‘yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslari va manbalar;
- tarbiya qonuniyatlarini, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Aynan mazkur asoslari ushbu fanlarning o‘quv negizini tashkil etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar bu fanlarni talab darajasida o‘zlashtirishi kerak, aks holda, ularning mazkur fan metodikasi bo‘yicha kasbiy tayyorgarligi talab darajasida rivojlanmaydi.

2021-2022 o‘quv yilidan boshlab OTMdada Tarbiya fanlari bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini o‘quvchilari uchun —Tarbiya fani Kontsepsiyasiga ko‘ra, mazkur fanlarning umumiy asoslarni quyidagilar tashkil etadi:

- huquqiy asoslari;
- tashkiliy asoslari;
- ilmiy-metodik asoslari.

Bunda asosan ta‘lim-tarbiyaga oid me‘yoriy-huquqiy huquqiy asoslari hujjatlardan iborat ekanligini, tashkiliy asoslari Tarbiya fanini umumita‘lim muktablarida, jumladan, boshlang‘ich ta‘limdan yuqori sinfgacha 2-sinfdan 11-sifgacha talab darajasida o‘qitilishni va ilmiy-metodik asoslari esa fanning metodologiyasini anglatadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldaggi 422-sonli —Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida —Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori Qarorga ko‘ra, —Tarbiya fanining asosiy tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:

- a) milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- b) ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantrish;
- v) fanga oid zamонавиylmiy-tadqiqotlarga asoslanish;
- g) ochiqlik va shaffoflik;
- d) tarbiya sohasiga oid tashhabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- e) tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va hususiy sektor faoliyatining muvofiqligi hamda mutanosibligi.

OTM bo‘lajak o‘qituvchilarning fanga oid bu tamoyillarini chuqur o‘zlashtirishi taqozo etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta‘lim jarayonida, tarbiyaviy tadbirlarda va mustaqil ta‘lim izlanishlarida ana shu tamoyillarni o‘zlashtirish, faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lish hamda kasbiy faoliyatda ularga amal qilish kompetensiyasini egallash dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun har bir talabaning individual shug‘ullanishi, pedagoglar bilan hamkorlikda faol ishlashi va tarbiya tamoyillarining hayotdagi ifodasini o‘rganib borishi taqozo etiladi. Bunda oliy ta‘lim muassasalarining imkoniyatlari, tarbiya fani asosida mustaqil ta‘limni dars mashguloti jarayonidagi sharoitlari va pedagogik faoliyatning amaliy samaradorligidan oqilona foydalanish kerak. Har bir talabaning mazkur fan tamoyillarini, asoslarini va istiqbolli maqsad-vazifalarini o‘zlashtirishi kasbiy tayyorlarlikning negizlaridan biri hisoblanadi. “Tarbiya” fanini o‘qitish zaruriyati. O‘zbekiston ta‘lim tizimida, jumladan, oliy ta‘lim muassasalarini jarayonida —Tarbiya fani asoslarni zamонавиylalasblar asosida o‘qitish va o‘rganish zaruriyat hisoblanadi.

Shu jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarining mazkur tarbiya fanini o‘zlashtirish va uni o‘qitishning metodikasini o‘rganish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- fanning asoslarini chuqur bilish;
- fanni o'qitishning ilg'or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallash;
- tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqotlarni olib borish;
- inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o'rnini to'liq idrok etish;
- fan vositasida talabalarini mustaqil hayotga tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish;
- fanni o'qitish bo'yicha individual pedagogik tajribaga ega bo'lisch.

Mazkur tarbiya fanlarini o'rganish zaruriyatil ilmiy, metodologik va amaliy jihatdan bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy talablardan hisoblanadi. Chunki bu fan ijtimoiy gumanitar fanlar kesimida tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish va samaradorligini o'rganib borish ishlarni muvofiqlashtiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida —Milliy o'quv dasturi talabalariga asosan o'qitiladigan fanlar aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumiga ajratiladi. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktabları, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda tarbiyaning mazmuni nisbatan o'zgaradi. Unga ko'ra, quyidagicha yondashuv amalga kiritilishi mo'ljallanmoqda:

a) aniq fanlar: Matematika va uning takibiga kiruvchi fanlarni o'qitish vositasida o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish bilan tarbiya jarayoni amalga oshiriladi;

b) tabiiy fanlar: Boshlang'ich ta'limda Atrofimizdag'i olam, Tabiatshunoslik (Science) fanlarini o'qitish vositasida o'quvchilarining mustaqil qarashlari, xohish va istaklarini to'g'ri tarbiyalash amalga oshiriladi;

s) gumanitar fanlar: —Tarbiya, —Ona tili va o'qish, —Musiqo, —Jismoniy tarbiya, —Tasviriy san'at fanlarini o'qitish vositasida o'quvchilarining aqliy, jismoniy va estetik tarbiyasini shakllanishi asosida amalga oshiriladi.

E'tiborli jihat, bundan keyin uzliksiz ta'limda tarbiya jarayoni umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Shu sababli bunday tarbiya jarayonini muvofiqlashtirib borish —Tarbiya fani zimmasiga yuklanadi. Bundan tashqari, Uzliksiz ta'limda estetik, aqliy va jismoniy rivojlanishni nazarda tutuvchi tarbiyaviy tadbirlar maqsadli o'tkaziladi, shuningdek, bayramlar va tantanalar vositasida o'quvchilarining ijtimoiy tarbiyasini rivojlantiriladi.

Tarbiya fani vositasida mazkur fan o'qituvchisi va sinf rahbari mas'ul hisoblanadi. Bularning barchasi bo'lajak o'qituvchilarining oliy pedagogik ta'lim jarayonida —Tarbiya fanini o'qitish zaruriyat, uning asoslarini o'zlashtirish va o'zlashtirilgan ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini egallashi taqozo etiladi. Shu sababli —uzliksiz ta'limda —Tarbiya fanini o'qitish metodikasi o'quv fani bo'yicha o'zlashtiriladigan nazariy bilim, didaktik ko'nikma va amaliy kompetentsiyalar bo'lajak o'qituvchilar uchun birlamchi talablar hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur bilim, ko'nikma va kompetentsiyalarini shakllantirish, tarkib toptirish va talabalarini kasbga yo'naltirishda ushbu tarbiya fani vositasida amalga oshirilishi, o'zlashtirish natijalarini bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarining kompetentsiya darajasini aniqlash monitoringi o'rnatiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida —Tarbiya fani bo'yicha quyidagi malakalarga ega bo'lishi taqoza etiladi:

- a) fan asoslarini bo'yicha nazariy-kasbiy bilimli bo'lisch;
- b) fanni o'qitish metodikasi bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lisch;
- v) fan vositasida talabalarini tarbiyaviy rivojlanish kompetensiyasini egallashi.

Mazkur masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim asosida tarbiya fanlarini o'zlashtirilishi taqoza etiladi. Shu jihatdan yuqorida ta'kidlangan Qarorda belgilanganidek, Tarbiya fanini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berish va ularni o'zlashtirish zaruriyat hisoblanadi:

- davlat ta'lim standartlari talablarini asosida talabalar tomonidan odob-axloq, bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;
- talabalarida mustaqil va erkin fikrashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- talabalarida ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;
- tarbiya fanlarini o'qitishning printsiplari yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning uзвишилиги va uзluksizligini ta'minlash.

Bularning barchasi bo'lajak o'qituvchilarini tomonidan to'liq o'zlashtirilishi lozim.

Xulosa. Pedagogik oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanihsining bugungi ahvolini o'rganish va pragmatik mazmundagi o'quv topshiriqlarining tarbiya ta'limidagi o'rnini belgilash, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish, uning dastur talabalariga mosligini qiyosiy o'rganish, shuningdek, ularni o'qitish bilan bog'liq muammolarning sabablarini aniqlash va yechimlar taklif qilish, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish asosida talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, transfer metodlarni ishlab chiqish va model xarita mexanizmlarini takomillashtirish, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish asosida fikrash ko'nikmalarini rivojlantirishning kompetentsiyalarini aniqlash, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish va topshiriqlar bilan ishlashda ta'lim traektoriyasi qulay va amaliy ahamiyatga ega metod, usul va texnologiyalarni tanlash, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni tajriba tarbiya darsliklari mazmunida, sinab ko'rish va olingan xulosalarini umumlashtirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017 yil 7 fevral. PF-4947-son.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. —T.: O'zbekiston, 2016. —14-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. —www.lex.uz
4. Джон Дюи. Общество и его проблемы Жохн Дешей. Тхе Публик анд итс Проблемс. Денвер, 1927. / Дж. Дюи. Общество и его проблемы. —Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н. Косилова. —М., 2002.
5. Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики. - М.: Педагогика, 1984. —108.
6. Рубенштейн С.Л. Проблемы общей психологии. -М.: Педагогика, 1976. - 416 с.
7. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. —М.: Педагогика, 1972. -576 с
8. Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика, 1976. -280 с
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-Tom. —T., 2004. 270 –bet
10. Bordovskaya N., Reyan A. Pedagogika. —Sankt-Peterburg, 2001. —S.32
11. Quronov M., Ye.Risikova., O.Tegay., O.Uzmanova., S.Hafizov. Tarbiya 6-sinf darsligi.T.: G.Gulom nomidahi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2020y.-109 b.

12. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. -576 с.
13. Розиков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении и школники (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс...док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. -50 с.
14. Axmedova M.E. Modul kredit tizimi uchun mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari.T.2022